O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ № 60230100-2.01
2021-yil
“28” avgust

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “28” avgust

O‘ZBEK NOMSHUNOSLIGI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100– Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan dasturi SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil 7-may dagi 15 -son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 22-may dagi 8 -sonli bayonnoma).

Fakultet o‘quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26- may dagi 8 - sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
O'NT 4005	2022-2023	3	5

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Tanlov	O‘zbek	12

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
1.	O‘zbek onomastikasi masalalari			
		75	75	

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga onomastika sohasining shakllanishi, uning toponimika, gidronimika, antroponimika, kosmonika singari ko‘plab yo‘nalishlari taraqqiyoti bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, ularning tilshunoslikda o‘rganilish darajasi haqida ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishdan, “O‘zbek nomshunosligi” fanining mohiyati, tushunchalari va terminlarini o‘zlashtirish, fanning kategorial muammolari haqida nazariy bilimlarni egallash, shuningdek, fanning bugungi kundagi dolzarb muammolarini belgilashdan iborat.

Fanning vazifasi – onomastika sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, toponim, antroponim, gidronim kabi onomastik birliklarning matndagi asosiy funksiyalari haqida ma’lumot berish; talabalarning onomastika fani sohalari xususida tasavvur hosil qilish va bu boradagi olingan bilimlarni mukammallashtirish vazifalarini amalga oshirish hamda fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish nazarda tutiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: “O‘zbek nomshunosligi” tanlov fanining maqsadi va vazifalari. Nomshunoslik muammolarning o‘rganilish tarixidan. “O‘zbek nomshunosligi” mavzuidagi tanlov fanning predmeti, asosiy bahs mavzulari yoritiladi. Nomshunoslik sohasining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi haqida ma’lumot beriladi.

2-mavzu: “O‘zbek nomshunosligi” **va uning boshqa fanlar bilan munosabati:** a) onomastika va tarix, b) onomastika va etnografiya; v) onomastika va adabiyotshunoslik, onomastika va geografiya o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘ganiladi.

3-mavzu: Atoqli otlarning o‘rganilish tarixidan. Tilshunoslikda

atoqli otlarning o‘rganilish tarixi haqida ma’lumot. Atoqli otlarning lug‘aviy ma’no ifodalashi yoki ifodalamasligi haqidagi turli xil qarashlar. Hozirgi zamon tilshunosligida atoqli otlarning o‘ziga xosligi muammolari. Atoqli otlar va turdosh otlar orasidagi chegara muammosi masalalari ochib beriladi.

4-mavzu: Onomastik ko‘lam, uning hajmi va mazmuni. “Onomastik ko‘lam”, “onomastik maydon” tushunchalarining mohiyati. Onomastik ko‘lam tushunchalari orasidagi sistem munosabatlar haqida. O‘zbek onomastik ko‘lamining hajmi va mazmuni. O‘zbek onomastik ko‘lamining ichki bo‘linishi, tasnifiy belgilari ochib beriladi.

5-mavzu: Onomastik tadqiqotlarning metodlari, ularning tadqiqi va talqini. Ularning turlari: a) tasviriy metod, b) tarixiy metod, v) qiyosiy-chog‘ishtirma metod, g) areal metod, d) semiotik metod, e) uslubiy metod, yo) statistik metod, j) lingvo-psixologik metod va boshqalar. Bu metodlarining qo‘llanish mezonlari va talqinlari haqida ma’lumot beriladi.

6-mavzu: O‘zbek antroponimikasi va uning asosiy muammolari, o‘rganilish darajasi. O‘zbek antroponimikasi tarixidan. Ism, ota ism, familiya, laqab, taxallus, ularning o‘zaro munosabati haqida fikrlar bildiriladi.

7-mavzu:O‘zbek antroponimikasi tarixidagi asosiy jarayonlar va bosqichlar: islomgacha bo‘lgan davr, VI-IX asrlar; XI-XIX asrlar; g) XX asr va mustaqillik davri konkret misollar asosida yoritiladi.

8-mavzu:O‘zbek antroponimiyasining o‘z va o‘zlashgan qatlami. O‘zbek antroponimik uslubiyati va uning asosiy muammolari o‘rganiladi. O‘zbek antroponimiyasining o‘z va o‘zlashgan qatlami, badiiy asarlarda qo‘llangan antroponimlar haqida fikrlar bildiriladi.

9-mavzu: O‘zbekiston toponimikasining umumiy tavsifi talqini. Toponimlarning guruhlanishi va tasniflanishi masalalari. O‘zbek toponimikasi tarixi va hozirgi bosqichi. O‘zbek toponimikasi taraqqiyotida H.Hasanov, A.Muhammadjonov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov kabi olimlarning o‘rni yoritiladi.

10-mavzu: O‘zbek toponimlarida o‘z va o‘zlashma qatlam. O‘zbek toponimlarida arabcha, forscha, mo‘g‘ulcha, so‘g‘dcha elementlar haqida ma’lumot beriladi.

11-mavzu: O‘zbek gidronimiyasi va uning asosiy muammolari, gidronimlarining o‘rganilishi. O‘zbek gidronimlarining nomlanish tamoyillari. O‘zbek tili gidronimlarining xronologik tasnifi. O‘zbekiston hududidagi gidronimlarning o‘rganilish darajasi haqida zarur tushunchalar beriladi. O‘zbek gidronimlarida arabcha, forscha, mo‘g‘ulcha, xitoycha, so‘g‘dcha elementlar haqida ma’lumot beriladi.

12-mavzu: O‘zbek etnonimiyasi va uning asosiy muammolari. Etnonimlar, etnonimlar majmui etnonimiya, etnonimlarni tadqiq qiluvchi soha etnonimika haqida ma’lumot beriladi, o‘zbek etnonimikasi muammolari haqida zarur tushunchalar beriladi.

13-mavzu: O‘zbek xalqining qabila va urug‘lari tarixiy manbalarda. Bir qancha turkiy urug‘ va qabila nomlarining etimologiyasi haqida ma’lumotlar beriladi. 92 bovli o‘zbek urug‘ va qabila nomlari, ularning tarixiy manbalarda o‘rganilishi, haqida zarur tushunchalar beriladi.

14-mavzu: Etnooykonimlari va etnotoponimlar, ularning o‘rganilishi haqida. Millat, urug‘ va qabila nomlari bilan bog‘liq joy nomlari haqida zarur tushunchalar beriladi.

15-mavzu: O‘zbek zoonimlari, ornitonimlarini o‘rganish masalalari. Zoonimiya, ornitonimlar, ularning badiiy adabiyotlarda qo‘llanilishi, ularning tuzilishiga ko‘ra turlari haqida ma’lumot beriladi.

16-mavzu: O‘zbek kosmonimikasining o‘rganilish darajasi va asosiy miammolari. “Kosmonimika” va “astronimika” atamalari haqida. Samoviy jismlar, yulduzlar, planetalarning nomlari haqida. O‘zbek kosmonimikasi tarixidan. O‘zbek xalq kosmonimiyasi va uning ilmiy kosmonimiyadan farqli xususiyatlari haqida ma’lumotlar beriladi.

17-mavzu: O‘zbek ideonimiyasi, ktematonimiyasi, xrononimlar va ularning asosiy muammolari. Badiiy asar sarlavhalari, bayram nomlari, nodir buyumlar nomlari va ularning o‘ziga xos belgilari haqida zarur tushunchalar beriladi.

18-mavzu: O‘zbek teonimiyasi, mifonimikasi va uning asosiy muammolari. O‘zbek mif va asotirlari, rivoyatlari nomlari, Olloh, payg‘ambar nomlari haqida izoh va tushunchalar beriladi.

19-mavzu: O‘zbek onomastik leksikografiyasi muammolari. O‘zbek tilshunosligida yaaratilgan onomastik lug‘atlar, lug‘atlarning amaliy ahamiyati haqida zarur tushunchalar beriladi.

20- mavzu: Onomastikada imlo va transkripsiya. Onomastikaning maktab, litseylarda o‘rganilishi haqida

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

III.Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg‘ulotlar mazmuni

1.“O‘zbek onomastikasi masalalari” mavzuidagi tanlov fanning maqsadi va vazifalari.

2.Atoqli otlarning o‘rganilish tarixidan.

3.O‘zbek onomastik ko‘lamining hajmi va mazmuni.
4.O‘zbek antroponimikasi haqida tushuncha va uning o‘rganilish darajasi.
5.O‘zbek antroponimiyasining o‘z va o‘zlashgan qatlami, badiiy asarlarda qo‘llangan antroponimlar.
6.O‘zbek toponimikasining guruhlanishi va tasniflanishi masalalari, tarixi va hozirgi bosqichi. Istiqlol o‘lkasining toponimik siyosati.
7. Ayrim toponimlar va ularning etimologiyasi. Toponimik lug‘atlar va ularning turlari.“Toshkent”, “Farg‘ona”, “Samarqand”, “Andijon”, “Buxoro”, “Jizzax”, “Xorazm” kabi toponimlarining etimologiyasi haqida ma’lumot beriladi.
8.O‘zbek tili gidronimlarining xronologik tasnifi. O‘zbekiston hududidagi gidronimlarning o‘rganilish darajasi, etimologiyasi. “Amudaryo”,”Sirdayo”, “Zarafshon” , “Qashqadaryo”, “Surxondaryo” kabi gidronimlarining etimologiyasi haqida ma’lumot beriladi.
9. Umumiy va o‘zbek kosmonimikasi, o‘rganilish darajasi va asosiy miammolari. Samoviy jismlar, yulduzlar, planetalarning nomlari haqida. O‘zbek xalq kosmonimiyasi va uning ilmiy kosmonimiyadan farqli xususiyatlari haqida ma’lumotlar beriladi.
10.O‘zbek ideonimiyasi, ktematonimiyasi, xrononimlar va ularning asosiy muammolari. Badiiy asar sarlavhalari va ularning o‘ziga xos belgilari haqida zarur tushunchalar beriladi.
11. O‘zbek xalqining qabila va urug‘lari nomlari. 92 bovli o‘zbek urug‘ va qabila nomlari, ularning o‘rganilishi.
12.O‘zbek etnooykonimlari va etnotoponimlari, ularning o‘rganilishi haqida.
13. O‘zbek zoonimlari, ornitonimlarini o‘rganish masalalari. Zoonimiya, ornitonimlar, ularning badiiy adabiyotlarda qo‘llanilishi, ularning tuzilishiga ko‘ra turlari haqida ma’lumot beriladi.
14. “Lison-ut-tayr”dagi va “Zarbulmasal”dagi qush nomlari haqida. Zoonimlar va ornitonimlar uslubiy vosita sifatida.
15.O‘zbek teonimiyasi, mifonimikasi va uning asosiy muammolari.
16.Sodda, birikmali va murakkab onomastik birliklar
17. O‘zbek tilshunosligida yaratilgan onomastik lug‘atlar, lug‘atlarning amaliy ahamiyati.
18. Onomastikada imlo va transkripsiya masalalari

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1.Turli lug‘atlardan “onomastika”, “onomastik ko‘lam”, “onomastik maydon”, “onomastik ko‘lamcha”, “toponim”, “toponimik indikator” kabi atamalar izohini aniqlash.

2.Onomastika sohasi bo‘yicha shug‘ullangan olimlar va ularning tadqiqotlari, maqolalari, monografiyalari haqida

3.O‘zbek antroponimlarining nomlanishi va etimologiyasi haqida

4.O‘zbek antroponimlarining o‘z qatlami va o‘zlashma qatlami haqida misollar asosida ma’lumot berish.

5.Turli lug‘atlardan sodda, birikmali va murakkab antroponimlarga misollar topish, tahlil qilish.

6.Mifologik va tarixiy antroponimlar va ularning uslubiy xususiyatlarini yoritish.

7. Badiiy asarlarda antroponimlarning uslubiy xususiyatlari.

8. Alisher Navoiy asarlari onomastikasi va uning o‘rganilishi haqida ma’lumot berish.

9. O‘zi tug’ilib o‘sgan qishloq, tuman, shahar, viloyat nomlarini izohlash.

10. Turli lug‘atlardan sodda, birikmali va murakkab toponimlarga misollar topish, ularni tahlil qilish.

11.Boshqa tillardan o‘zlashgan toponim misol keltirish va ularning etimologiyasini izohlash.

12. O‘zi tug’ilib o‘sgan qishloq, tuman, shahar, viloyatdagi gidronimlarni izohlash

13. Boshqa tillardan o‘zlashgan gidronimlarga misol keltirish va ularning etimologiyasini izohlash.

14. Turli lug‘atlardan sodda, birikmali va murakkab gidronimlarga misollar topish, ularni tahlil qilish.

15. Turli lug‘atlar va manbalardan urug‘, qabila, elat, xalq va millat nomlari – etnonimlarning har biridan o‘ntadan aniqlab, ularning tarkibi, etimologiyasi yozma izohlash.

16. Asosiy o‘zbek urug‘lari va o’zi mansub urug‘ haqida ma’lumot berish.

17.Turk, o‘zbek, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz nomlari haqida ma’lumot berish

18. “Devonu lug’atit turk” asarida keltirilgan urug‘, qabila, elat, xalq va millat nomlari haqida

19. Mirzo Ulug‘bekning “To’rt ulus tarixi” va A.Bahodirxonning “Shajarayi-turk” asarlarida urug‘, qabila, elat, xalq va millat nomlari haqida

20. Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan onomastik birliklar izohini berish.

21.Afsonaviy, mifonimik ornitonimlarga misol keltirish va sharhlash.

22. “Lisonut tayr” asaridagi qushlar nomlari va ularning izohi

23.M.Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi ornitonimlarga misol keltirish va sharhlash.

24.Badiiy asarlardagi zoonimlarga misollar keltirish.

	25.Xalq dostonlaridagi zoonimlar haqida ma'lumot berish 26. Badiiy asarlarda keltirilgan kosmonimlarga misollar keltirish, ularni izohlash, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berish. 27. Nekronimlarga misollar keltirish, ularni izohlash, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berish. 28.Teonimlar, mifonimlarga misollar keltirish, ularni izohlash, uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berish. 29.Xalq dostonlaridagi onomastik birliklar haqida ma'lumot berish. 30.O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi xrononimlar xususida ma'lumot berish. 31.X.Doniyorovning "O'zbek xalqining shajara va shevalari" asarini o'rganish 32.H.Hasanovning "O'rta osiyo joy nomlari tarixidan" asarini o'rganish 33. Onomastika sohasida o'zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlar xususida ma'lumot berish 34. Onomastik lug'atlar va ularning turlari haqida ma'lumot berish 35.Maktab darsliklarida keltiriladigan onomastik birliklarni sharhlash
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Toponim, antroponim, gidronim, etnonim, mifonim, zoonim, ornitonim, kosmonim, ideonim kabi onomastik birliklarning matndagi asosiy funksiyalari haqida ko'nikma hosil qilishi kerak. Tilning onomastik birliklari, onomastik ko'lami va onomastik maydoni hamda ular haqidagi bilimlar majmuining jahon va o'zbek tilshunosligida ilmiy, nazariy, amaliy va uslubiy jihatlardan tadqiq etilishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilishi va mavzu bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:**

	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1.Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 112 б. 2.Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б. 3. Эназаров Т, Ҳусанова М, Есемуратов А. Ўзбек номшунослиги.– Тошкент: Наврўз, 2015. –150 б. 4.Қораев С. Топонимика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. – 320 б **Qo‘shimcha adabiyotlar:** 1. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 92 б. 2.Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. – Наманган, 2008. – 168 б. 3.Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. № 3. – Б. 3-9; № 4. – Б. 7-9. 4.Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ўзбек ономастикасининг микрокўлами // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 3. – Б. 17-21; 2007. № 5. – Б. 33-39; 2008. № 1. – Б. 55-60. 5.Дониёров Ҳ. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – 98 б. 6.Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б. 7.Каримов С., Бўриев С. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – 131 б. 8.Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – 96 б. 9.Охунов Н. Тил ва жой номлари. – Т., Ўзбекистон, 1988. – 32 б 10.Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари.–Т.: Фан, 1997. – 129 11.Эназаров Т. Топонимларнинг этимологик тадқиқининг илмий-назарий ва амалий-услубий асослари (Туркий топонимлар мисолида). I-китоб. – Тошкент, Университет, 2001. - 128 б. 12.Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965. **Onomastik lug‘atlar** 1.Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. – 208 б. 2.Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б. 3.Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи. –

	Самарқанд, 1997. – 202 4.Ўринбоев Б., Ҳоликов О. Мактаб топонимик луғати. – Самарқанд, 2004. – 92 б. Axborot manbalari (saytlar): 1.www.literature.uz. 2.http:// www.lingvist.tu 3.http:// www.til.sk.uz 4.http:// www.ziyouz.com 5.http: //wikipedia.org/wiki/
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2021-yil - dagi -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** O.S.Yusupova – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
9.	**Taqrizchilar:** Sh.Mahmadiyev – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (ichki) M.Abdiyev – SamDU, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasi professori,filologiyasi fanlari doktori (tashqi)